

## O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI

Teshaboyeva Sarvinoz Ismoil qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti

1-kurs Sotsiologiya yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11113042>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati; yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar; Prezidentimizning yoshlarga oid farmon va farmoyishlari, qarorlari; haqida so'z boriladi.

**Kalit so'zlar:** Yoshlarga oid davlat siyosati, yangi O'zbekiston amaldagi Konsititutsiyasi.

### STATE POLICY ON YOUTH IN UZBEKISTAN

**Abstract.** In this article, the state policy on youth in Uzbekistan; opportunities given to young people; The President's decrees, orders and decisions regarding youth are discussed.

**Key words:** State policy on young, the new current Consitution of Uzbekistan.

### ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается государственная политика в отношении молодежи в Узбекистане; возможности, предоставляемые молодым людям; Указы и распоряжения, постановления Президента относительно молодежи; речь идет.

**Ключевые слова:** государственная политика в отношении молодежи, новая действующая Конституция Узбекистана.

**KIRISH.** Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, 2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 14-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 9 million 654 ming 351 kishini tashkil etib, jami aholining 26,8 % ga [1] teng kelmoqda. Ya'ni, mamlakatimiz boshqa sohalar qatori nufus jihatidan ham katta davlatga aylanmoqda. Yurtimiz aholisi 2040 yilga borib 50 millionga yetishi, jamiyatning yarmidan ko'pini yoshlar tashkil qilishi kutilmoqda. Shunday ekan mamlakatimizda kelajagimiz bunyodkori bo'lgan yoshlarga bo'lgan davlatimizning g'amxo'rliklari ham teng miqiyosda ortib bormoqda. Haqiqatdan ham, yoshlarimiz ertamiz egalari, ularga e'tibor qaratishimiz orqaligina o'z kelajagimizni ishonchli hamda farovon qilib yarata olamiz. Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda yoshlar davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, ularni har tomonlama yetuk istiqbolli, yurt taqdirini o'z zimmasiga olishga qodir avlod sifatida voyaga yetkazish uchun barcha imkoniyatlar yaratildi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" [2], - deydi Abdulla avloniy. Darhaqiqat, faqatgina to'g'ri berila olgan ta'lim-tarbiyagina yaxshi maqsadlar uchun hizmat qiladi. Ular bizni yo halokat tomon yo saodat tomon yetaklaydi. "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" deya,

muhtarama prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev [3] mamlakatimizni yanada rivojlantirish uchun, avvalambor, butun e'tiborini yoshlarga va ularning ta'lim-tarbiya olishlariga qaratdi. Zero bugungi kunda yoshlarimizning yo'lida g'ov bo'layotgan salbiy oqibatlarga qarshi kurashishning eng samarali yo'li bu bilim va ma'rifatdir. Chunki jahon faqatgina o'zining kimligini, tarixini, nasl-nasabini bilgan yoshlarnigina tan oladi hamda ularni yuksaklarga ko'taradi. Mamlakatimizda yoshlarning kamol topishi uchun ko'plab imkoniyatlar yaratildi hamda islohotlar joriy etildi. Jumladan, so'nggi yillarda yoshlar o'rtasida "Yosh kitobxon" kitobxonlik musobaqalari, komyuter savodxonligi, kasb-hunar egallashga bo'lgan yangicha yondashuv, yoshlarni qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi, bolalarni bog'chalarga qamrab olish darajasini oshirish, maktablarda o'qitish metodlarining zamonaviy usullari yaratilganligi, ta'lim fidoiylari bolgan ustozlarning malaka darajalarini oshirishga qaratilgan islohotlar, iqtidorli o'quvchilar uchun fan to'garaklari va iqtisodlashgan maktablarning ko'payishi, prezident maktablarining joriy etilishi hamda nodavlat ta'lim muassasalarining ortib borishi, abitutrentlarga yaratilgan imkoniyatlar, ta'lim tizimini korrupsiyasiz sohaga aylantirishga qaratilgan islohotlar, davlat grandlarining ortib borishi, xorijda malaka oshirish imkoniyatlari yuqoridagi fikrlarning yaqqol amaldagi aksidir.

**NATIJARLAR.** Yuqorida keltirilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, yurtimiz sharafini ko'klarga ko'tarayotgan yoshlarimizning ortib borishi ko'zni quvontiradi. Ularning fan olimpiadalarida xalqaro maydonlarda yuqori o'rinlarni egallashi, sport sohasining barcha sohalarida yurtimiz bayrog'ini butun jahonga tanitishi, shunday imkoniyatlarga tayanib o'z sohasining yetuk mutaxassisi, zamonaviy kadrlar bo'ib yetishayotgani, albatta, butun O'zbekistonning yutug'idir. Davlatimizning turli sohalarida o'zini ko'rsata oladigan shunday yoshlarimizni rag'batlantirish maqsadida "Prezident sovg'alari", "Kelajak bunyodkori" medali va boshqalar ta'sis etildi.

**MUHOKAMA.** "Amaldagi Konstitutsiyamizda yoshlar huquqlari va yoshlar siyosati haqida birorta ham so'z yo'qligi albatta adolatdan emas. Kelajak avlod haqida g'amxo'rlik dunyoning bir qator davlatlarining konstitutsiyalari va xalqaro shartnomalarda asosiy huquqiy norma sifatida mustahkamlangan. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz Konstitutsiyasiga kelajak avlod haqida alohida bob kiritish zarur" [4]. Haqiqatdan ham yoshlarga shunday imkoniyatlar yaratilgan ekan, bular qomusimizda ham o'z aksini topmog'i darkordir. O'tgan yili qabul qilingan Yangi amaldagi Konstitutsiyamizning XIV bobi "Oila va yoshlar" deb nomlandi [5] va yoshlarga oid siyosat qonunimizda belgilab qo'yildi. "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi"(6). "Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. [7] "O'zbekiston — 2030" strategiyasiga [8] ham kiritilgan maqsadlardagi "Yoshlarga oid davlat siyosati"ning ahamiyati naqadar mamlakatimizni yuksalib borishi uchun kerakli omil ekanligidan dalolatdir.

**XULOSA:** Xulosa o'rnida yozar ekanman, har qanday davlatning ertangi hayoti yoshlarga bog'liqdir. Ularni har tomonlama barkamol, vatanparvarlik hissi bilan tarbiyalash bu mamlakatning kelajagi porloqligidan dalolatdir. Albatta bunday imkoniyatlarni teran anglab, ulardan oqilona foydalanib mamlakatimizni butun dunyoga tanitish biz yoshlarga bog'liqdir.

Zero toshdan gul undirish mumkin bo'lgan serquyosh o'lkamizning ko'rki nafosatiga yanada ko'rk bag'ishlash bugungi kunda har birimizning muqaddas burchimizdir.

#### REFERENCES

1. <https://stat.uz/> 04/11/2021
2. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq”
3. Shavkat Mirziyoyev/15-iyun/Toshkent/"Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi"
4. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” Shavkat Mirziyoyev
5. O‘zbekistonning Respublikasi amaldagi Konsititutsiyasi XIV-bob
6. O'zbekiston Respublikasi amaldagi konsititutsiyasi 79-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi amaldagi konsititutsiyasi 78-modda.
8. “O‘zbekiston — 2030”/lex.uz